

Nargiza USMONOVA

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

DAVLAT XARIDLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH MASALALARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada davlat xaridlarini samarali tashkil etish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarining respublika bo‘yicha jami xarajatlari va YaIMdagi ulushi tahlil qilinib keng o‘rganilgan. Davlat xaridlarini samarali tashkil etish masalalari bo‘yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat xaridi, xaridni boshqarish, elektron savdo, davlat buyurtmachisi, elektron tender, elektron platforma.

***ISSUES OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF PUBLIC
PROCUREMENT***

Abstract. This article analyzes the issues of effective organization of public procurement. It analyzes and extensively studies the total costs of public procurement carried out by public customers in the republic and their share in GDP. Scientific and practical proposals and recommendations on the issues of effective organization of public procurement are developed.

Keywords: public procurement, procurement management, e-commerce, government customer, e-tender, e-platform.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat xaridlarini samarali tashkil etish – iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanish va byudjet mablag‘larining tejab-tejamkorligiga erishishda muhim omildir. BMT va Jahon banki ekspertlarining ta’kidlashicha, “davlat xaridlarida shaffoflik va raqobatbardoshlik tamoyillari

iqtisodiy samaradorlikni 20–30 foizgacha oshirishga xizmat qilmoqda”[1]. Mamlakatimizda ham davlat xaridlarining elektron platformalar asosida avtomatlashtirilishi korrupsion xavflarni kamaytirishda va xarajatlarni optimallashtirishda sezilarli natija bermoqda. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda, davlat xaridlarida samaradorlik ko‘rsatkichlarini belgilash va ularning monitoringini yo‘lga qo‘yish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Hozirgi global iqtisodiy tahdidlar sharoitida davlat xaridlari tizimining barqaror ishlashi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning kafolati sifatida qaralmoqda. Davlat xaridlarida mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ustuvorlik berish orqali ichki ishlab chiqarishni rag‘batlantirish strategik maqsad hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni sinchiklab o‘rganish va moslashtirish orqali milliy xarid siyosatini takomillashtirish zarurati ortib bormoqda.

Davlat xaridlari orqali amalga oshiriladigan moliyaviy oqimlar yalpi ichki mahsulotning 20–25 foizini tashkil etishi sababli bu tizimni isloh qilish iqtisodiyotda yuqori samaradorlikka erishishni ta’minlaydi[2]. Xalqaro amaliyotda davlat xaridlarini strategik boshqarish orqali ijtimoiy infratuzilma loyihalarini tezlashtirish va ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo‘llari muvaffaqiyatli sinovdan o‘tkazilgan. O‘zbekistonda 2021–2024 yillarda davlat xaridlarining markazlashgan platforma asosida yuritilishi bu sohada shaffoflik va samaradorlikni oshirishga xizmat qildi. Biroq, hali ham hududiy byudjet tashkilotlarida xarid mexanizmlarining samarasizligi va jarayonlarda ochiqlikning yetarli emasligi kuzatilmoqda. Shu sababli davlat xaridlarini strategik rejalashtirish, manfaatdor tomonlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va professional kadrlar salohiyatini oshirish dolzarb yo‘nalishlardan biridir. Mazkur yo‘nalishda iqtisodiyotni raqamlashtirishga oid islohotlar davlat xaridlarining natijadorligini oshirish uchun asosiy zamin bo‘lib xizmat qilmoqda. Xaridlarni baholash mezonlarini joriy etish

orqali resurslardan oqilona foydalanish va korxonalarning innovatsion imkoniyatlarini aniqlash mumkin bo'lmoqda.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston uchun ham bu masala ayniqsa dolzarb bo'lib, davlat byudjetining samarali sarflanishi, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholi farovonligini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Davlat xaridlari orqali davlat turli sohalarda o'z ehtiyojlarini qondiradi, bunda sifatli tovarlar va xizmatlarni arzon narxda olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Biroq, davlat xaridlarini samarali tashkil etishda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish uchun bir nechta chora-tadbirlar zarur. Ushbu jarayonda, davlat xaridlarini o'z vaqtida va samarali amalga oshirish orqali nafaqat davlat mablag'larining to'g'ri va oqilona sarflanishini ta'minlash, balki iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash ham mumkin.

Davlat xaridlarida shaffoflikni ta'minlash eng muhim vazifalardan biridir. Ko'plab davlat xaridlarida ba'zan shaffoflik yetishmaydi, bu esa korrupsiyaning rivojlanishiga olib keladi. Tenderlar va shartnomalar jarayonining ochiq bo'lishi, barcha ishtirokchilarga teng imkoniyatlar yaratish, davlat mablag'larining adolatli va samarali sarflanishini ta'minlashga yordam beradi. Shaffoflikning yetishmasligi, ayniqsa, davlat xaridlari jarayonida ko'plab jiddiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlar ko'pincha tenderlarga nisbatan raqobatni kamaytiradi, ishtirokchilarni xohishlariga ko'ra o'zaro shartnoma tuzish imkoniyatiga olib keladi, bu esa barcha jarayonning ishonchliligi va to'g'riligi haqida jiddiy savollarni tug'diradi. Shu sababli, davlat xaridlarini samarali tashkil etishda shaffoflikni ta'minlash uchun barcha tenderlar va xaridlar jarayoni elektron tizimlar orqali amalga oshirilishi kerak. Elektron tizimlar yordamida barcha

ma'lumotlar ochiq va osongina tekshiruvga olinishi mumkin, bu esa korrupsiyaning oldini oladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat xaridlarida raqobatning bo'lishi ham muhim ahamiyatga ega. Raqobatning yo'qligi davlat xaridlarining sifatsiz va qimmat narxlarda bo'lishiga olib keladi. Shunday qilib, davlat xaridlarida raqobatni oshirish, barcha ishtirokchilarga bir xil sharoitlar yaratish, eng yaxshi narx va sifatni ta'minlash uchun zarurdir. Raqobatning oshirilishi nafaqat narxlarni kamaytirish, balki mahsulotlar va xizmatlarning sifatini yaxshilashga ham yordam beradi. Masalan, raqobatbardosh muhitda har bir ishtirokchi o'z mahsulotini sifatli va arzon narxlarda taqdim etishga intiladi, bu esa davlat xaridlari sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Xorijlik iqtisodchi olimlardan Milgrom fikricha, raqobatga asoslangan tender jarayonlari davlat xaridlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Tender tizimining puxta loyihalashtirilgani byudjet mablag'larining isrof bo'lishini kamaytiradi [3]. Shuningdek, shaffoflikning yuqori darajasi xaridchilar bilan yetkazib beruvchilar o'rtasidagi ishonchni mustahkamlaydi. Bu esa davlat xaridlarining innovatsion yechimlarga yo'naltirilishini rag'batlantiradi.

Iqtisodchi olim Mazzucato fikricha, "Davlat xaridlarini innovatsiyalarni rag'batlantiruvchi vosita sifatida qarash yangi iqtisodiy model uchun muhim tamoyildir. Ayniqsa, barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida faol xarid siyosati yuritilishi lozim"[4]. Bunday yondashuv davlatni faqat tartibga soluvchi emas, balki iqtisodiy jarayonlarni faol boshqaruvchi subyekt sifatida namoyon qiladi. Natijada, davlat siyosati orqali iqtisodiyotga uzoq muddatli yo'nalish beriladi.

Iqtisodchilardan Tirole “Davlat xaridlaridagi samaradorlik masalasi tender mexanizmlarining dizayniga va axborot asimmetriyasiga bevosita bog‘liq. Noaniqlikni kamaytirish orqali xaridlar sifatini nazorat qilish imkoniyati oshadi”[5]. Bu fikrlar tenderda ishtirok etuvchi tomonlar o‘rtasidagi shartnoma shaffofligini oshirish zaruratini ko‘rsatadi. Natijada, xarid tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy adolatni ham ta‘minlaydi.

Davlat xaridlarining samarali tashkil etilishi bugungi kunda iqtisodiy islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Raqamli texnologiyalarning davlat boshqaruviga joriy etilishi ushbu tizimda shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. “Davlat xaridlarining samarali tashkil etilishi uchun eng muhim omillardan biri bu — axborot texnologiyalariga asoslangan ochiqlik tamoyilini keng joriy etishdir. Chunki ochiq e‘lon qilinadigan xaridlar tizimi korrupsion xatarlarni kamaytiradi va tadbirkorlar uchun teng raqobat muhitini ta‘minlaydi”[6]. Shu orqali davlat xaridlarida budget mablag‘larining maqsadli va oqilona yo‘naltirilishiga zamin yaratiladi. Natijada, iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta‘sir ko‘rsatiladi.

Davlat xaridlarida nazorat va tahlil mexanizmlarining kuchaytirilishi samaradorlikni oshirishning asosiy omilidir. Ayniqsa, xarid jarayonida iqtisodiy mezonlarga asoslangan yondashuv kuchli moliyaviy nazoratni ta‘minlaydi. “Davlat xaridlarida moliyaviy intizomning ta‘minlanmaganligi budget mablag‘larining samaradorligini pasaytiradi. Shuning uchun har bir xarid iqtisodiy va ijtimoiy natijadorlik mezonlari asosida baholanishi lozim” [7]. Bu esa xarid siyosatini strategik rejalashtirishni talab etadi. Ushbu yondashuv davlat xarajatlarini ijtimoiy ustuvor yo‘nalishlarga yo‘naltirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Hududiy iqtisodiyotni rivojlantirishda davlat xaridlari muhim vosita hisoblanadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish esa raqobatbardosh

ichki bozorni shakllantiradi. “Davlat xaridlarining markazlashtirilgan holda tashkil etilishi xarajatlarni optimallashtiradi, lekin markazlashuv darajasi haddan ortsa, mahalliy yetkazib beruvchilarning ishtirokini cheklaydi. Shu sababli, muvozanatli yondashuv zarur”[8]. Davlat buyurtmalarining mintaqaviy ehtiyojlar asosida taqsimlanishi ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta’minlashga yordam beradi. Bu esa davlat xaridlarining makroiqtisodiy samaradorligini oshiradi.

Elektron tizimlar va yangi texnologiyalarni joriy etish bu borada muhim omil bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan “xarid.uzex.uz” portali orqali davlat xaridlarining elektron shaklda amalga oshirilishi jarayoni shu nuqtai nazardan o‘rnak bo‘lishi mumkin. Bu tizim orqali tenderlar, sotib olish va shartnomalar to‘g‘risidagi barcha ma’lumotlar yagona platformada jamlanadi, bunda barcha ishtirokchilarga imkoniyatlar teng taqdim etiladi. Elektron tizimlarning afzalligi shundaki, ular jarayonni tezlashtiradi, xatoliklar va manipulyatsiya ehtimolini kamaytiradi. Bu, shuningdek, davlat xaridlarining sifatini yaxshilash va adolatli amalga oshirilishiga hissa qo‘shadi.

Yana bir muhim omil – me’yoriy-huquqiy bazaning takomillashtirilishidir. Davlat xaridlarini amalga oshirishda qoidalar aniq va tushunarli bo‘lishi kerak. Ba’zan davlat xaridlariga oid qonunlar va me’yoriy hujjatlar to‘liq yoki aniq emas, bu esa jarayonlarda muammolarni keltirib chiqaradi. Davlat xaridlarini amalga oshirishda aniq va puxta belgilangan qonun va qoidalar mavjud bo‘lishi kerak, bu esa xaridlarning samarali o‘tkazilishiga imkon yaratadi. Me’yoriy-huquqiy bazaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, ko‘p hollarda hukumat va tijorat tashkilotlari o‘rtasidagi munosabatlarning aniq va shaffof bo‘lmashligi, shuningdek, korrupsiyaning tarqalishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Shu sababli, bu tizimni takomillashtirish uchun qonunlar va me’yoriy hujjatlarni zamonaviy talablarga mos ravishda yangilab borish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolaning metodik bazasini davlat xaridlarini samarali tashkil etish masalalari bo'yicha tadqiqot uslublarini tashkil etdi, bundan tashqari analiz, sintez, guruhlash, taqqoslash, grafik, iqtisodiy-statistik uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi davrda davlat xaridlarining samarali tashkil etilishi davlat moliyaviy boshqaruvining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Iqtisodiy resurslarning oqilona taqsimlanishini ta'minlash uchun huquqiy asoslar alohida e'tibor talab qiladi. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonunida davlat xaridlari quyidagicha ta'riflanadi: "Davlat xaridlari — davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini pulli asosda ta'minlash jarayoni"[9]. Ushbu ta'rif davlat sektorida iqtisodiy resurslardan foydalanishning tashkiliy-huquqiy asoslarini belgilaydi. Xarid jarayoni nafaqat moliyaviy mablag'larning oqilona sarflanishiga, balki iqtisodiy faoliyatda shaffoflik, raqobat va samaradorlik mezonlarining ustuvorligiga ham xizmat qilishi lozim.

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish uchun malakali kadrlar zarur. Davlat organlarida ishlovchi xodimlar malakali va tajribali bo'lishi kerak. Bu davlat xaridlarini boshqarish va amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni tez va samarali hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, xodimlarning malakasini oshirish uchun muntazam ravishda treninglar va seminarlar tashkil etilishi zarur. Kadrlar masalasiga e'tibor qaratish davlat xaridlarining muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil bo'ladi. Xodimlar, bir tomondan, me'yoriy-huquqiy asoslarni bilishlari kerak, boshqa tomondan, ularning texnik va menejment ko'nikmalarini ham oshirish zarur. Malakali va

tajribali xodimlar orqali davlat xaridlari jarayonini eng samarali va to'g'ri tashkil etish mumkin.

Davlat xaridlarining samaradorligini oshirish uchun elektron tizimlar va avtomatlashtirish jarayonlarini joriy etish zarur. O'zbekiston Respublikasida bu borada bir qator elektron tizimlar joriy etilgan. Masalan, "xarid.uzex.uz" portali orqali davlat xaridlari elektron shaklda amalga oshirilmoqda. Bu tizim davlat xaridlarining shaffofligini ta'minlaydi, hujjatlarni tez va oson rasmiylashtirish imkonini beradi va xato yoki manipulyatsiya ehtimolini kamaytiradi. Elektron tizimlar davlat xaridlarining samaradorligini oshiradi va jarayonlarni soddalashtiradi. Bundan tashqari, elektron tizimlar davlat xaridlari jarayonlarini butunlay shaffof qiladi, tenderlar to'g'risida barcha zarur ma'lumotlarni jamoatchilik bilan bo'lishish imkonini yaratadi, bu esa fuqarolar va tadbirkorlar tomonidan ishonchning ortishiga olib keladi.

Shuningdek, davlat xaridlarini samarali tashkil etishda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash muhimdir. Ko'p hollarda davlat xaridlarida yirik kompaniyalar ishtirok etadi, kichik va o'rta biznes esa imkoniyatdan mahrum bo'ladi. Bu holat iqtisodiyotning diversifikatsiyasini cheklaydi va kichik biznesni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash uchun maxsus tenderlar va imtiyozlar joriy etilishi mumkin. Bu orqali davlat xaridlarida kichik va o'rta biznes sub'ektlarining ishtiroki oshadi va iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shiladi. Bunday qo'llab-quvvatlash dasturlari ayniqsa, yangi tashkil etilgan va texnologik innovatsiyalarni joriy etayotgan kichik biznes uchun katta imkoniyat yaratadi. Kichik va o'rta biznesga yordam berish orqali nafaqat iqtisodiy faollik oshadi, balki yangi ish o'rinlari yaratiladi va mamlakatning iqtisodiy mustahkamligi ta'minlanadi.

Nazorat va monitoring tizimini kuchaytirish ham muhimdir. Davlat xaridlarining har bir bosqichida mustaqil auditorlik va monitoring tizimlari joriy etilishi zarur. Bu jarayonlarning shaffofligini ta'minlash, korrupsiyani kamaytirish va davlat mablag'larining to'g'ri sarflanishini nazorat qilish imkonini beradi. Nazoratning kuchaytirilishi davlat xaridlarining sifatini oshiradi va ularning natijalarini yaxshilaydi. Auditorlik va monitoringning muhimligi shundaki, ular nafaqat moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlaydi, balki ishtirokchilarning barcha qonunbuzarliklarini va so'rovlarni aniqlashga yordam beradi.

1-jadval

Davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarining respublika bo'yicha jami xarajatlari va YaIMdagi ulushi tahlili[10]

Ko'rsatkichlar	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
YAIM	738 425,2	896 617,9	1 066 569,0	1 454 573,9
Davlat xaridlari jami (mlrd so'm)	147 388	204 543	253 312	248 609
Davlat xaridlari ulushi YAIMga nisbatan (%)	20,0%	22,8%	23,8%	17,1%
Byudjet buyurtmachilari xaridlari (mlrd so'm)	57 008	69 590	76 971	78 709
YAIMga nisbatan ulushi (%)	7,7%	7,8%	7,2%	5,4%
Korporativ va yirik korxonalar xaridlari (mlrd so'm)	90 380	134 953	176 341	169 900
YAIMga nisbatan ulushi (%)	12,2%	15,1%	16,5%	11,7%
Korporativ buyurtmachilar (mlrd so'm)	41 322	59 170	72 391	62 832
YAIMga nisbatan ulushi (%)	5,6%	6,6%	6,8%	4,3%
Yirik davlat korxonalari (mlrd so'm)	49 058	75 784	103 950	107 068
YAIMga nisbatan ulushi (%)	6,6%	8,5%	9,7%	7,4%

Davlat xaridlari har bir davlatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligi hamda moliyaviy tizimining samarali faoliyat yuritishida muhim strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur jarayon orqali davlat o'z ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki mamlakat ichkarisida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, ish o'rinlari yaratish, raqobat muhitini rivojlantirish va xususiy sektorni jalb etish imkoniyatiga ega bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida ham davlat xaridlari tizimi oxirgi yillarda keng qamrovli islohotlar markazida bo'lib, u orqali samaradorlik, ochiqlik, shaffoflik, hisobdorlik kabi tamoyillarni amaliyotga joriy etish bo'yicha izchil qadamlar qo'yilmoqda.

Statistik ma'lumotlarga tayanadigan bo'lsak, 2021 yilda O'zbekiston bo'yicha yalpi ichki mahsulot (YAIM) umumiy hajmi 738 425,2 milliard so'mni tashkil qilgan. Shu yil davomida mamlakat bo'yicha amalga oshirilgan davlat xaridlari umumiy hajmi 147 388 milliard so'mni tashkil etgan bo'lib, bu raqam YAIMning 20 foiziga teng bo'lgan. Bu juda katta ko'rsatkich bo'lib, davlat mablag'larining salmoqli qismi aynan xaridlar orqali iqtisodiyotga yo'naltirilganini ko'rsatadi. Ushbu xaridlarning 57 008 milliard so'mlik qismini byudjet buyurtmachilari amalga oshirgan. Bu esa YAIMning 7,7 foiziga to'g'ri keladi. Qolgan 90 380 milliard so'mlik xaridlar esa davlat tasarrufidagi yirik tashkilotlar, ya'ni korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari tomonidan amalga oshirilgan. Bu o'z navbatida, iqtisodiy faoliyatning muhim qismi aynan davlat sektori tomonidan shakllantirilayotganini ko'rsatadi. Korporativ buyurtmachilar tomonidan 41 322 milliard so'mlik xaridlar amalga oshirilgan bo'lsa, yirik davlat korxonalari tomonidan esa 49 058 milliard so'mlik xaridlar amalga oshirilgan. Bu raqamlar davlat sektorining faol xarid siyosati olib borayotganidan dalolat beradi.

2022 yilda mamlakat YAIM hajmi o'tgan yilga nisbatan keskin o'sib, 896 617,9 milliard so'mga yetgan. Davlat xaridlari hajmi esa 204 543 milliard so'mga

yetib, YAIMning 22,8 foizini tashkil etgan. Bu esa davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki yanada kuchayganini ko'rsatadi. Byudjet buyurtmachilari tomonidan 69 590 milliard so'mlik xaridlar amalga oshirilgan bo'lib, YAIMga nisbatan 7,8 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich orqali byudjet tashkilotlarining xarid faoliyati barqaror darajada ekanini ko'rish mumkin. Korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalarining xaridlar hajmi esa 134 953 milliard so'mni tashkil qilgan bo'lib, ularning YAIMdagi ulushi 15,1 foizni tashkil qilgan. Bu ikki toifa buyurtmachilar orasida eng katta ulush yana yirik davlat korxonalariga tegishli bo'lib, ular o'z ehtiyojlarini qondirish uchun 75 784 milliard so'mlik xaridlar amalga oshirgan.

2023 yilga kelib, mamlakat YAIMi 1 066 569 milliard so'mga yetdi, ya'ni o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sish kuzatildi. Xuddi shu yil davomida davlat xaridlarining umumiy hajmi 253 312 milliard so'mni tashkil etib, YAIMga nisbatan 23,8 foiz darajasiga chiqdi. Bu ko'rsatkich davlat xaridlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri kuchayganini anglatadi. Byudjet buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar hajmi 76 971 milliard so'm bo'lib, YAIMga nisbatan 7,2 foizga teng. Korporativ buyurtmachilar tomonidan 72 391 milliard so'm va yirik davlat korxonalari tomonidan 103 950 milliard so'mlik xaridlar amalga oshirilgan bo'lib, bu ularning faoliyati hajmi va resurslardan foydalanish darajasi yuqoriligini ko'rsatadi. Ushbu ko'rsatkichlar orqali davlat korxonalari mamlakat ichki bozorida katta ishtirokga ega ekani yana bir bor o'z isbotini topadi.

2024 yilda esa YAIM hajmi 1 454 573,9 milliard so'mga yetgan. Ammo bu yilda davlat xaridlarining umumiy hajmi 248 609 milliard so'mni tashkil etib, YAIMga nisbatan 17,1 foizni tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan pasaygan bo'lib, xaridlar hajmidagi pasayish sabablari alohida tahlilni talab qiladi. Byudjet buyurtmachilari tomonidan 78 709 milliard so'mlik xaridlar amalga

oshirilgan bo'lsa, bu YAIMning 5,4 foizini tashkil etadi. Bu orqali byudjet tashkilotlarining xarajat siyosati barqaror qolganini ko'rish mumkin. Biroq, korporativ buyurtmachilar va yirik davlat korxonalari xaridlarining kamaygani kuzatilmoqda. Ularning umumiy xarid hajmi 169 900 milliard so'mni tashkil etib, YAIMga nisbatan 11,7 foizni tashkil qilgan. Shundan 62 832 milliard so'mlik xaridlar korporativ buyurtmachilar, 107 068 milliard so'mlik xaridlar esa yirik davlat korxonalariga to'g'ri kelgan.

Bugungi kunda davlat xaridlarining samarali tashkil etilishi O'zbekiston iqtisodiyotining modernizatsiyasi va korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatining muhim qismiga aylangan. Xalqaro reyting agentliklari, xususan, OECD va Transparency International tashkilotlari davlat xaridlarining ochiqligi va adolatligi mamlakatlar investitsion jozibadorligini oshirishda hal qiluvchi rol o'ynashini e'tirof etmoqda[11]. O'zbekistonda davlat xaridlari bo'yicha maxsus qonunchilik bazasining kuchaytirilgani, ularni raqamlashtirish choralari sohada ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Biroq, xaridlarning strategik maqsadlar bilan uyg'unligini ta'minlash, tender jarayonlarida baholash mezonlarining aniqligi va monitoring tizimining takomillashuvi talab etiladi. Ayrim hollarda byudjet tashkilotlarining xarid siyosatida lobbizm va manfaatlar to'qnashuvi mavjudligi iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois davlat xaridlarida muqobil narxlar tahlili, harajatlarni asoslash va xarid strategiyasining iqtisodiy tahlilini yuritish zarur. Xalqaro tajriba asosida "iqtisodiy eng maqbul taklif" mezoni bo'yicha qaror qabul qilish tizimi keng joriy etilishi lozim.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillar asosida xulosa qilish mumkinki, O'zbekistonda davlat xaridlari tizimi yildan-yilga takomillashib borayotgan bo'lsa-da, 2024 yilda kuzatilgan kamayish tendensiyasi iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bog'liq bo'lishi

mumkin. Davlat xaridlari orqali iqtisodiyotga investitsiya kiritish imkoniyati mavjud bo'lib, ular mamlakatda ishlab chiqarish, eksport va mahalliy ishlab chiqaruvchilarning qo'llab-quvvatlanishiga xizmat qilishi kerak. Shu sababli xarid tizimini yanada takomillashtirish, elektron platformalardan samarali foydalanish, tender jarayonlarini soddalashtirish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash zarur. Ayniqsa, davlat mablag'larining oqilona sarflanishi, tanlov jarayonlarining adolatli o'tishi va korrupsiya holatlarining oldini olish maqsadida nazorat mexanizmlari kuchaytirilishi kerak.

Davlat xaridlarining YAIMdagi ulushi va tuzilmasi O'zbekiston iqtisodiyotining davlat sektori orqali boshqarilayotganini ko'rsatadi. Bu esa hukumatning iqtisodiy faoliyatdagi bevosita ishtirokini kuchaytiradi. Kelgusida esa bu tizimni yanada samarali tashkil etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va byudjet mablag'laridan maksimal darajada foyda olish imkoniyatlari oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. OECD (2022). Government at a Glance 2022. OECD Publishing, Paris.
DOI: <https://doi.org/10.1787/1c258f55-en>
2. World Bank (2020). Benchmarking Public Procurement 2020: Assessing Public Procurement Regulatory Systems in 180 Economies. Washington, DC.
3. Milgrom, P. (2016). "Auction theory and the design of effective procurement systems." Journal of Economic Perspectives, 30(4), 1–26.
4. Mazzucato, M. (2018). The Entrepreneurial State: Debunking Public vs. Private Sector Myths. Penguin Books
5. Tirole, J. (2017). Economics for the Common Good. Princeton University Press.

6. Karimov A.A., “O‘zbekiston iqtisodiyotida davlat xaridlari tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari”, Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2021, №5
7. Hasanov B.E., “Budjet mablag‘laridan foydalanishda samaradorlikka erishish yo‘llari”, Moliya va iqtisod, 2019, №3
8. Tursunova D.R., “Davlat xaridlarini hududiy rivojlanish bilan uyg‘unlashtirish muammolari”, Iqtisodiy taraqqiyot jurnali, 2020, №2
9. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida” Qonuni, 22.04.2021 yildagi O‘RQ-684-son
10. Iqtisodiyot va moliya vazirligi Davlat xaridlari departamenti ma‘lumotlari
11. Transparency International (2023). Corruption Perceptions Index Report 2023.